

YANGI O'ZBEKISTONDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI ISLOH
QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI, IJTIMOIY SUG'URTA
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Mavlonov Aziz Mexmonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya

Akademiyasining
Loyiha boshqaruvi
(Project management) mutaxassisligi

LB-24-16 guruh magistranti

Annotation. Maqolada fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimida pensiya ta'minotining o'rni, Taraqqiyot strategiyasida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish bilan bog'liq yo'nalishlar, pensiya tizimini isloh qilish Konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining ahamiyati olib berilgan hamda ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pensiya, pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqa, konsepsiya, ijtimoiy soha, ijtimoiy adolat, sug'urta badali, imtiyozli pensiyalar, mehnat staji, demografik omillar, jamg'arib boriladigan pensiya, nodavlat pensiya ta'minoti.

**WAYS TO REFORM AND IMPROVE THE PENSION SYSTEM IN NEW
UZBEKISTAN, DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SOCIAL
INSURANCE SYSTEM**

Abstract. The article reveals the role of pension provision in the system of social protection of the population, the directions of development of the state pension system in the Action Strategy, the importance of programs of measures for developing the Concept of reforming the state pension system for 2019-2030 and developed scientific conclusions, suggestions and recommendations.

Keywords: pensions, pension provision, social benefit, concept, social sphere,

social justice, insurance premium, preferential pensions, work experience, demographic factors, funded pensions, non-state pension provision.

Kirish

Pensiya ta'minoti tizimi aholining mehnatga layoqatsiz va muhtoj qismining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadlaridandir.

Qolaversa, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanadi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltiradi (Борисенко, 2009). Shu nuqtai nazardan har qanday mamlakat ijtimoiy siyosatining eng muhim vazifalari tarkibida pensiya tizimini isloq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. 1990-yillarning boshidan buyon aksariyat Sobiq Ittifoq mamlakatlarda tarkibi va qamrovi jihatidan turli xildagi pensiya islohotlari amalga oshirildi.

Qozog'iston, Rossiya va Boltiqbo'yい mamlakatlari hozirda pensiya islohotlarining ikkinchi bosqichini amalga oshirishmoqda, boshqa mamlakatlarning ko,,pchiligi islohotlarning dastlabki bosqichidayoq pensiya ta'minotida jiddiy va keng qamrovli islohotlarni amalga oshirganlar (Ukraina, Turkmaniston, Armaniston va Ozarbayjon) (Grishchenko, 2016).

Mazkur davlatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak pensiya yoshini oshirish borasida birinchilardan bo'lib Litva (1995 yil), so'ngra Moldaviya va Qozog'iston (1998 yil), Armaniston va Tojikiston (2001 yil), Ozarbayjon (2010 yil), Ukraina (2011 yil), Belarusiya, Rossiya va Estoniya (2017-2018 yillar) davlatlari pensiya islohotlarini amalga oshirishgan. (Tursunov, 2022)

Hozirgi kunda O‘zbekistonning pensiya tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirish jarayonlari olib borilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishga oid belgilangan maqsadlar

53-maqsad: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himovasini kuchaytirish

54-maqsad: Pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish

- Fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga muvofiq izchil oshib borishini ta’minlash.
- Xalqaro tamoyil va standartlarga muvofiq ko‘p bosqichli va davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta’minoti tizimini joriy qilish.
- Fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilmasdan idoralararo elektron ma’lumot almashinuvni asosida pensiya tayinlash tizimiga o’tish.

66-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish

85-maqsad: Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish

1- rasm. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishga oid belgilangan maqsadlar (PF-60, 2022)

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida Harakatlar strategiyasining davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy ta’minot, xususan, davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar aks ettirilgan (1-rasm).

Mazkur yo‘nalishlar u yoki bu darajada ijtimoiy ta’minot tizimini, shu jumladan, davlat pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishga va uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

AQShning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta’minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo‘lib, u ishlovchilarining mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta’minotining dolzarb masalalarini ko‘tarib chiqadi.

J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta“minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e’tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o‘zgarishlarni tadqiq etadi.

Pensiya ta’minotiga ta’sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli;

AQSH va butun dunyoda aholining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug‘urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi;

xususiy tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an’anaviy pensiya ta’minotining yo‘qolib borayotganligi;

davlat sektoridagi ishchi- xodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshishi;

tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada o‘sishi.

AQShda ishlovchilarining pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta’minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta’minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo‘ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta’minlab berishi lozim bo‘ladi (Peng, 2008).

Iqtisodchi-olim Y.N.Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag‘allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to‘lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta’minlash, bu daromadni kelajakda turmush

darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi kabilar bayon qilingan (Borisenko, 2009).

Valentin Roik ta'kidlashicha, pensiyaning miqdori fuqarolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari va olgan ish haqi miqdoriga bog'langan hamda yollanib ishlayotgan ishchilarning majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari nazarda tutilgan (Роик, 2012).

Fedotov A.I. tadqiqotlarida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijobiy jihatlari jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shart- sharoitlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining salbiy xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, pensiya islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda ushbu tizimni aholining keng qatlamlari tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lishlari mumkin.

Boz ustiga, "pensiya islohotlarini endigina boshlayotgan mamlakatlar uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimining taqsimlanuvchi pensiya tizimi bilan o'zaro munosabatlarida bu muammolar yanada o'tkir tus olishi mumkin" (2015).

Shuningdek, ushbu tizimda moliyaviy risk darjasini yuqori bo'ladi, ayniqsa, nobarqaror iqtisodiyot sharoitida bu nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining kelajagi nisbatan porloqdir.

Bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, pensiya tizimidagi islohotlar ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuviga, ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minotiga, fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek, fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalashga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlashga qaratilgan.


Ammo, pensiya tizimini isloq qilish, avvalo, har bir mamlakatdagi demografik holat va iqtisodiyotning taraqqiyoti va boshqa omillar asosida amalga oshirilishini taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz mavzusi pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlarga bag'ishlanganligi sababli shu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning pensiya tizimini xususiyatlari, davlat pensiya ta'minotini isloq qilishdagi yondashuvlari tadqiq etilgan hamda tizimli yondashuv, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo'yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko'ra, 2019-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi keskin



oshishi kutilmoqda (yillik o'rtacha o'sish – 16 ming nafar fuqaro) va bu holat tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (1950-1960-yillardagi "Bebi-bum") davrda tug'ilgan fuqarolarning umumiyligi belgilangan pensiya yoshiga etishi bilan bog'liqdir.

2-rasm. 2011-2016-yillarda Pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan fuqarolar soni va 2019-2024 yillardagi prognoz ko'rsatkichlari (pfru.uz)

Bu esa, o'z navbatida, Pensiya jamgarmasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

Mamlakat aholisining qarib borishi ko'rsatkichi shuni ko'rsatadiki, pensiya yoshidagi aholi soni o'sish tendensiyasiga ega (2010-yildagi aholining umumiy soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018-yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025-yilga borib 11 foizga etadi (2011-yildagi 6,2 foizga nisbatan).


O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yosh. Qozog'istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga etkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi.

Ijtimoiy badallar miqdori va to'lovlar o'rtasida mutanosiblilikka riosa etish, band bo'lgan aholining pensiya ta'minotini sug'urtalanganlik xarakterini ta'minlovchi asosiy prinsip hisoblanadi hamda pensiya tizimini moliyalashtirishda o'zining moliyaviy ishtirokini rag'batlantiruvchi ta'sir mexanizmi sanaladi. Fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzlusiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lmadan qolmoqda, buning natijasida mehnatga layoqatli aholining tahminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinmagan, ya'ni budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy ajratmalarni amalga oshirmayapti.

Halqaro mehnat tashkilotining talabariga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to'lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o'zaro nisbati 1 : 4 darajada bo'lishi ko'rsatilgan. Biroq, bugungi kunda O'zbekistonda bu ko'rsatkich o'rtacha 1 : 1,5 ga teng.

Pensiya jamg'armasi mablag'larining sezilarli qismi imtiyozli shartlardagi pensiyalarni va pensiyalarga ustama haqlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Imtiyozli


shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etadi. Yiliga o‘rtta hisobda 39,8 mingta imtiyozli pensiyalar tayinlanmoqda.



Shu bilan birga, imtiyozli shartlardagi pensiyalarning o‘rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o‘rtacha miqdoridan (543,2 ming so‘m) yuqori bo‘lib, 3 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha pensiyalar 742,6 ming so‘mni, 2 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 951,3 ming so‘mni va 1 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 1 025,4 ming so‘mni tashkil etadi.

3-rasm. Ba’zi bir mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi (pfru.uz)

Shuningdek, pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi



o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham sezilarsiz. Amaldagi pensiya ta’minti tizimi, 7 yildan kam bo‘lмаган stajga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi. Ushbu huquq faqatgina 7 yil ishlab va o‘zining butun mehnatga layoqatlilik davri uchun Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishda eng kam hissa

qo'shgan shaxslarga pensiya olish imkonini beradi.

4-rasm.Ayrim davlatlarda talab etiladigan eng kam ish staji (pfru.uz)

Xalqaro mehnat tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konventsiyasiga muvofiq, yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish staji 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko'plab davlatlari, shu jumladan, MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10-15 yil darajasiga etkazilgan.

Ishlovchilarning ijtimoiy sug'urtadagi uzoq muddat va uzlusiz ishtirokini rag'batlantirishdagi zaif mexanizmlar ularni sug'urta badallarini to'lamaslikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi. Bularning barchasi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining pensiya ta'minoti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan pensiya ta'minoti tizimini kompleks o'rganish va uni rivojlantirish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda 2019-2030 yillarda pensiya ta'minoti tizimini isloq qilish Konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha Chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Mazkur Dastur quyidagilarni o'zi ichiga oladi:

1. Pensiya ta'minoti tizimining joriy holatini o'rganish, tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlash. Juhon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan hamkorlikda pensiya ta'minoti tizimining asosiy kontseptul yo'naliшlarini aniqlash.

2. Pensiya ta'minoti tizimining samaradorligi va ijtimoiy adolatliligin oshirish masalalarini o'rganish. Bunda:

- aholining kam ta'minlangan qatlami uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash me'yorlari va standartlarini belgilash masalalarini qayta ko'rib chiqish;
- keksalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga, shuningdek, davlat pensiyalarini tayinlash uchun zarur bo'ladigan talab etiladigan mehnat stajiga ega bo'lman shaxslarga pensiya (ijtimoiy nafaqa) tayinlash va to'lashning amaldagi

mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish;

- imtiyozli pensiyalarni tayinlashdagi imtiyozlarni optimallashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- ijtimoiy badal to‘lovchilar qamrovining ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- pensiya ta’mnoti tizimi samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash bo‘yicha tahliliy material va takliflar tayyorlash.

3. Fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimida rag‘batlantiruvchi xarakterdagi mexanizmlarni o‘rganish:

- fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimida uzoq muddatli va uzlusiz ishtirokini rag‘batlantirish;
- mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog‘liq holda pensiya miqdorlarini oshirish (talab etilgan me’yorlardan yuqori darajada);
 - mehnat staji davomiyligini rag‘batlantirish “xufyona iqtisodiyotdan chiqish”;
- mehnat migrantlari va norasmiy sektorni ijtimoiy sug‘urta tizimiga jalg qilish yo‘li bilan pensiya badallari to‘lovchilar sonini tubdan kengaytirish bo‘yicha takliflarni qayta ishlash va asoslash, to‘lanayotgan pensiya badallarining shaffofligini ta’minlash;
- pensiya ta’mnoti tizimida uzoq muddatli va uzlukusiz ishtirok etuvchi fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha tahliliy material va takliflar tayyorlash;

4. Fuqarolarning ijtimoiy sug‘urta (pensiya) tizimidagi ixtiyoriy ishtiroki mexanizmini o‘rganish:

- fuqarolarning ijtimoiy (pensiya) sug‘urta tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishining shart-sharoitlari bilan bog‘liq masalalarni kompleks o‘rganish;
- fuqarolarga uchinchi shaxslar uchun ixtiyoriy asosda sug‘urta badallari to‘lash huquqini berish. Ishlovchi er (xotin)ning mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlari hisobidan ishlamayotgan turmush o‘rtog‘i uchun ixtiyoriy ravishda Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to lash huquqini taklif etish.

– Shu jumladan, pensiya yoshiga etgan, ammo zarur ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga, davlat pensiyalarini hisoblashda etishmayotgan stajning xar bir oy uchun Pensiya jamg‘armasiga bir martalik sug‘urta badallarini to‘lash huquqini taklif etish. Er (xotin) ishlamayotgan turmush o‘rtog‘i uchun Pensiya jamg‘armasiga ixtiyoriy sug‘urta badallari to‘lash tizimi dunyoning ko‘plab davlatlarida mavjud. Misol uchun, Yaponiyada bu tizim majburiy xarakterga ega, bunday tizim Shvetsiya va Buyuk Britaniyada ham mavjud (MOT, 102);

– fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishga salbiy ta’sir etuvchi muammolarning oldini olish, shuningdek, jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larining daromadlilagini oshirish;

– fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimida, shu jumladan, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi ishtirokini rag‘batlantiruvchi xarakterdagi mexanizmlarni kuchaytirish bo‘yicha tahliliy material va takliflar tayyorlash;

5. Avlodlarning moliyaviy ishtiroki ekvivalentligi va pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash shart-sharoitlarini o‘rganish:

– yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat staji davomiyligining shart-sharoitlarini o‘rganish (Xalqaro Mehnat Tashkilotining “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari tog‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasida yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etilgan eng kam staj 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko‘plab davlatlari, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida talab etilgan eng kam ish stoji 10-15 yilga etkazilgan);

– ilg‘or xorij tajribasini, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari tajribalarini o‘rganish asosida hamda asoslangan hisob-kitoblarga tayangan holda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish.

6. 2019-2030 yillarda davlat pensiya tizimini isloh qilish Konsepsiysi loyihasi bo‘yicha umumlashgan materiallar tayyorlash.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki, davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish Kontsepsiysi, ayni vaqtida, ishlab chiqilishi hamda amalgaga

oshirilishi zarur va dolzarb bo‘lgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardandir.

Davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasi loyihasida quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi zarur, deb hisoblaymiz:

- 1) O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining joriy holati;
- 2) mamlakatdagi demografik omillar;
- 3) pensionerlar (yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik) soni va uning jami aholi tarkibidagi ulushi;
- 4) imtiyozli shartlardagi pensiyalar;
- 5) pensiyalarga ustama haqlar;
- 6) pensiyalarning o‘rtacha miqdori;
- 7) aholining o‘rtacha umr davomiyligi yoki yashash muddati;
- 8) pensiya ta’minoti tizimiga davlat xarajatlari va uning yalpi ichki mahsulotdlagi ulushi;
- 9) pensionerlar uchun yaratilgan shart- sharoitlar;
- 10) ish bilan band aholi (sug‘urta badali to‘lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati;
- 11) byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligi;
- 12) pensiya ta’minotining etarilik darajasi;
- 13) mehnat migrantlarining davlat pensiya sug‘urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi;
- 14) ish bilan band aholining pensiya sug‘urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi;
- 15) pensiyaga chiqish yoshi va boshqa omillar chuqur tahllillar asosida atroficha o‘rganilishi va bayon qilinishi lozim. Ana shu tahlil va xulosalar asosida O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini qaysi yo‘l bilan yoki qanday tarzda yanada rivojlantirish mumkinligi xususida tavsiyalar berish mumkin. Bir vaqtning o‘zida davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasi loyihasida kishilarning turmush darajasining xavfsizlik modeli ham asoslanishi zarur. Buning uchun pensiya

sug‘urtasi tizimini yanada rivojlantirishning asosiy printsiplari ishlab chiqilishi kerak. Bu prinsiplar quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- birinchidan, pensiyalarning miqdori pensiya sug‘urtasi fondiga to‘langan badallar miqdoriga hamda kishining mehnat faoliyati davomida uning pensiya sug‘urtasida ishtirokining davomiyligiga bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunday printsip ekvivalentlik printsipi deb ataladi;
- ikkinchidan, pensiya miqdorining oshirilishi mamlakatdagi o‘rtacha ish haqining oshirilishiga mutanosib ravishda amalga oshirilishi kerak;
- uchinchidan, pensiya miqdori pensionerlarning munosib turmush farovonligini ta’minlab berishi uchun etarli miqdorda bo‘lishi zarur.

Pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishning asosiy maqsadi pensionerga munosib turmush farovonligi va hayot darajasini ta’minlab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun: pensiya ta’minoti tizimining huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, yangi tahrirdagi “Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun ishlab chiqish va qabul qilish; ilg‘or xorij tajribalari asosida “Nodavlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun ishlab chiqish va qabul qilish, xususiy pensiya fondlarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi, ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2019-2030 yillarda davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish Konsepsiyasida quyidagilar o‘z aksini topishi zarur, deb hisoblaymiz:

1. Pensiya ta’minoti tizimining joriy holati va omillari (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va demografik);
2. Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishning maqsadi va yo‘nalishlari (pensionerga munosib turmush farovonligi va hayot darajasini ta’minlab berishi nuqtai nazaridan);
3. Pensiya ta’minoti tizimining huquqiy-me’yoriy bazasini takomillashtirish;
4. Nodavlat pensiya ta’minoti tizimini tashkil etish va ular faoliyatini tartibga

solistning samarali tizimini yaratish;

5. Ijtimoiy sug‘urta tizimida ishtirok etishning rag‘batlantiruvchi omillari;

6. Pensiya ta’minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni faollashtirish;

7. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini yanada risoqlantirish.

Har bir bo‘limda ushbu Konsepsiyanı amalga oshirish chora-tadbirlari, shakllari, bajarish muddatlari va mas’ul ijrochilar belgilab olinishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К0», 2009. – С. 8.
2. Natalia Grishchenko. Pensions after pension reforms: A comparative analysis of Belarus, Kazakhstan, and Russia. 1st International Conference on Applied Economics and Business, ICAEB 2015. Procedia Economics and Finance 36(2016) 3–9.
3. Tursunov J.P. Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta’siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi. Том 24 № 6 (2022): Экономика и образование
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son).
5. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – Р. 45.
6. Валентин Роик. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы. – М.: «Альпина Паблишер», 2012. – С. 56 с.
Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. Труды ИСА РАН 2006. Т. 23. (<http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles->

2015/TGU_6_174.pdf).

7. www.pfru.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi rasmiy veb sayti.